

KADASTR SOHASIDA KORRUPSION HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH MEXANIZMLARINI KOMPLAENS–NAZORAT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Xidirov Maxmud Murtazoyevich

**Davlat kadastrlari palatasi Buxoro viloyati boshqarmasi
korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bosh mutaxassisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21214913>

ANNOTATSIYA. Kadastr sohasida korrupsiyaning oldini olish qat'iy rioya qilishni nazorat qilishni talab qiladi. Muvofiqlikni nazorat qilish noqonuniy xatti-harakatlarni to'xtatish uchun ichki qoidalarini belgilashni anglatadi. Buning ishlashi uchun agentliklar xodimlarning qonunga rioya qilishini ta'minlash uchun raqamli tizimlardan, aniq tekshiruvlardan va qat'iy jazolardan foydalanadilar. Mazkur tezisda kadastr sohasida korrupsion huquqbuzarliklarni oldini olish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Korrupsiyaga qarshi kurashish, Kadastr agentligi, korrupsiyaviy xavf-xatarlar, ustav kapitali, huquqbuzarliklar.

KIRISH

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini har tomonlama takomillashtirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning sabablari va omillarini aniqlash va bartaraf etish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qonunni qo'llash amaliyoti qonun hujjatlarida korrupsiya uchun sharoit yaratadigan normalarni aniqlash va bartaraf etish tizimining sifati va samaradorligini oshirish choralari ko'rishni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6013-son farmoniga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan korxonalar, shu jumladan banklarda korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro vositalari asosida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etish va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkillashtirish, monitoringini olib borish, shuningdek, ularning mazkur sohadagi faoliyati bo'yicha reytingini tuzish vazifasi yuklatilgan.

Ma'lumot uchun: korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralari ko'rish uchun mas'ul hisoblanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-5177-son Qaroriga ko'ra, 2021-yil 1-oktyabrdan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yish vazifasi belgilandi.

ASOSIY QISM

Kadastr agentligida korrupsion huquqbuzarliklar va noqonuniy xatti-harakatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish maqsadida tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Xususan, Prezidentimizning 2022 yil 11 maydagi PQ-240-son qarori ijrosi doirasida Kadastr agentligiga yuklatilgan funksiyalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlar baholandi hamda joriy yilning may oyida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlandi.

Korrupsiyaning oldini olish borasida tizim xodimlari va fuqarolar bilan seminar, davra suhbatlari, ma'ruza orqali hamda ommaviy axborot vositalari orqali profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Shuni ham aytish joiz, O'zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”gi qonuni ijrosi doirasida Kadastr agentligi tizimi faoliyatida manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, oldini olish va tartibga solish maqsadida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom tasdiqlandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish, uning oldini olish va bartaraf etish maqsadida boshqarma va bo'lim-filiallar binolariga Kadastr agentligining Ishonch telefoni va aloqa kanallari aks ettirilgan bannerlar joylashtirildi.

Tuzilmalar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan yaqindan hamkorlik yo'lga qo'yilgan bo'lib, o'rganilgan 21 ta holat bo'yicha materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan va hozirgi kunda shundan 2 ta holat bo'yicha tegishli idoralar tomonidan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Kadastr agentligida korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti, ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma tasdiqlandi.

Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti, kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti, xodimlarning etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishi bo'yicha yo'riqnoma tashkil etildi. Kadastr agentligi tizimidagi xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom, Kadastr agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xizmat tekshiruv va o'rganish o'tkazishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlar qabul qilingan.

Ushbu sohada inson omilini kamaytirish, shaffof mexanizmni joriy etish hamda xodimlar bilan fuqarolarning bevosita uchrashuvi va korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida kadastr sohasi bo'yicha 20 ga yaqin xizmat turi Davlat xizmatlari markazlari orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, sohada manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha xodimlarga deklaratsiya to'ldirish tizimi joriy etilgan. Ishga qabul qilishda esa shaffoflikni ta'minlash maqsadida milliy vakansiyalar bazasining (vacancy.argos.uz) saytlariga bo'sh ish o'rinlari to'g'risida ma'lumotlar joylashtirib kelinmoqda.

Davlat organlari va tashkilotlarining inson resurslarini boshqarishga oid faoliyatini raqamlashtirish axborot tizimi (hrm.argos.uz) orqali xodimlar hamda ishchilarning soni, vakansiyalar, shuningdek, ishga joylashish uchun nomzodlarga ish beruvchilar tomonidan qo'yiladigan malakaviy va boshqa talablar to'g'risidagi ma'lumotlar ham e'lon qilib boriladi. Barcha toifadagi xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish maqsadida ularga korrupsiyaga qarshi kurashish ichki tizimi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi me'yoriy hujjatlar to'plami tarqatilgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Kadastr agentligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan doimiy hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, jumladan, aniqlangan noqonuniy holatlar bo‘yicha to‘plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun berib borilmoqda hamda Kadastr agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari va Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tezkor xodimlari bilan hamkorlikda korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga qaratilgan bir qancha tadbirlar o‘tkazib kelinmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6013-son farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi PQ-240-son qarori
4. https://uza.uz/uz/posts/kadastr-agentligi-tizimida-korrupsiyaviy-xavf-xatarlar-xaritasi-va-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-dasturi-tasdiqlandi_722832